

**“MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI
SOG’LOMLASHTIRISH ORQALI MA’NAVIY SIFATLARINI
SHAKLLANTIRISHNING ME`YORIY-HUQUQIY VA ILMIY-
NAZARIY ASOSLARI”**

Jizzax shahar 32-DMTT tarbiyachilari

Xashimova Sevara Xusan qizi

Karimova Madina Muxitdin qizi

***Annotatsiya:** Mazkur maqola mavzusi “Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni sog’lomashtirish orqali ma’naviy sifatlarini shakllantirishning me`yoriy-huquqiy va ilmiy- nazariy asoslari” deb nomlangan bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotida integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy - ahloqiy tarbiyalash holatini o‘rganish, maktabgacha ta’lim tashkiloti barcha yosh guruhlarida ma’naviy-ahloqiy sifatlarini tarbiyalash usullari, maktabgacha ta’lim tashkiloti yosh guruhlarida ma’naviyatni oshirishga qaratilgan sog’lomashtirish ishlarining samaradorligi batafsil yoritilgan.*

***Annotation:** The topic of this article is called “ Regulatory-legal and scientific-theoretical foundations of the formation of children's moral qualities through health promotion in the preschool educational organization”, in which moral-moral upbringing of preschool children based on an integrated approach in preschool education organization study of the situation, methods of educating moral and moral qualities in all age groups of the preschool educational organization, the effectiveness of health improvement activities aimed at increasing morale in the age groups of the preschool educational organization is covered in detail.*

Mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohatlar, o’zgarishlar, yangiliklar hech birimizga shubhasiz sir emas. O’zbekiston hayotini, ta’lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish

borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ta'lim berishning, ma'naviy, axloqiy va kasb malakasi bo'yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqildi. Sifat jihatidan butunlay yangi o'quv dasturlari yaratildi. Davlatimiz rahbarining ushbu fikrlari keyinchalik ta'lim-tarbiya sohasiga oid ko'plab qonunlarning, tegishli me'yoriy hujjatlarning yaratilishiga metodologik asos sifatida xizmat qildi. "Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masala. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta'limga katta e'tibor berilyapti va bu hali boshlanishi",- dedi Shavkat Mirziyoyev o'zining 2018-yil 30-sentabrdagi Toshkent shahri Yunusobod tumani 74-sonli Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qilgan tashrifidagi nutqida.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichidir. Ushbu tizimning asosiy maqsadi - bola shaxsining har jihatdan rivojlanishini ta'minlash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qishga, doimiy ta'lim olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish va maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining qonuniy asoslari: O'zbekiston Respublikasi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan Qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21-noyabrdagi VM-929-son qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi to'g'risidagi Nizomni hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari Direktor va Mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash to'grisida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" da keltirilgandek, ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va turli sohalarda ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim

tizimni yaratish koʻzda tutildi. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasiing 38, 39, 40 maqsadlari aynan maktabgacha taʼlim tizimi haqidadir.

2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasiing 38-maqsadini quyida keltirib oʻtishni joiz deb bildim: Maktabgacha taʼlimdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022-2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024-2025 oʻquv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish vazifalari belgilangan. Undan tashqari, 39-maqsadi: maktabgacha taʼlim tizimiga xususiy sektor mablagʻlarini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarini tashkil etish, taʼlim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha taʼlim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022 – 2026 - yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha taʼlim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligi qayd etilgan.

2022 - 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasiing 40-maqsadida Maktabgacha taʼlim tizimida budget mablagʻlarining maqsadli va samarali sarflanishini taʼminlash, maktabgacha taʼlim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish vazifalari qoʻyilgan. Endilikda bu vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. **Maktabgacha taʼlim tashkilotlari taʼlim tizimining eng asosiy va zarur boʻlgan ajralmas boʻlagi hisoblanadi.**

Akademik X.A.Turaqulov oʻzining “Ilmiy tadqiqot asoslari” kitobida maktabgacha taʼlimga shunday taʼrif beradi: “Maktabgacha taʼlim-milliy pedagogik kadrlar tayyorlashning boshlangʻich shaklidir”. Bir soʻz bilan aytganda maktabgacha taʼlim sogʻlom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psilogik, pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi, bolalarni muntazam ravishda maktab taʼlimiga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ishonchli ta'lim berish qatorida sog'lom tarbiya berish ham juda kata ahamiyatga ega. Umuman olganda tarbiya bermoq, yosh avlodni yetuk shaxs qilib tarbiyalamoq oldimizda turgan bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga qattiq e'tibor qaratganlar. Renessans davri (9-15 asrlar) Markaziy Osiyo halqlari mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, [Abu Rayhon Beruniy](#), [Ahmad al-Farg'oniy](#), [Umar Xayyom](#), Mirzo Ulug'bek, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushid, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddin, Alisher Navoiy singari ulug' olim-u adiblar, fozil-u fuzalolar ta'lim-tarbiya borasida ko'plab fikrlar aytishgan, asarlar yozganlar. Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" asari, Kaykovusning "Qobusnoma" kabi asarlari bunga dalildir. Sharq pedagogikasining asoschilaridan bo'lgan **Farobiy** bilimli, ma'rifatli shaxslarni tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin». **O'z davrining buyuk tabibi bo'lmish Abu Ali Ibn Sino** bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida juda qimmatli fikrlarini bildirib o'tgan. **Ibn Sino** bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan qarashlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritiladi. "Bolani tarbiyalash oila, ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasi bo'lmog'i lozim. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota – ona tarbiyachi bo'lishi mumkin"-deb aytib o'tganlar. Yana alloma axloqiy tarbiyada

eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatda bo'lish, unga nasixat qilishdir deb hisoblaydilar. **Ibn Sino** bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol topishida asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning yozishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan bola zarur tarbiyani olishi kerak. “Farzand tarbiyasiga nihoyatda erta e'tibor bermoq shart. Shundagina ularning noo'rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi” - deb uqtiradi Yusuf Xos Xojib. Mutafakkirning fikricha, farzand tarbiyasi juda qiyin jarayon. Bu tana va ruhning kuchini, xotirjamlikni talab qiladi. U chaqiradi, agar insonning o'zi go'zal fazilatlarga ega bo'lsa, ularni boshqa odamlarga o'rgatishi kerak. Ammo bolalarda namunali axloq, odat bo'lishi uchun ota-onaning katta kuchi va ulkan mehnati talab qilinadi. Bu ta'lim natijasida paydo bo'ladi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur deb hisoblaydi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi. Mazkur ta'limiy asarlarda inson shaxsini ma'naviy kamolga yetkazish, yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirilishi mumkin ekanligini anglamog'imiz kerak.

Kaykavus ta'kidlaganidek, bolalarni tarbiyalashda talabchan, lekin ayni paytda yumshoq bo'lishi kerak.

Milliy uyg'onish davri (19 asr oxiri 20 asr boshlari) adiblari A.Avloniy, Hamza, Cho'lpon, Shakuriy kabi ilg'or pedagoglar asarlarida ham bola tarbiyasiga oid sobit fikrlar keltiriladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munawar qori Abdurashidov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin, Sadriddin Ayniy, Ismoil Obidiy va boshqalar “Vaqt”, “Osiyo”, “Shuhrat”, “Hurriyat”, “Ulug' Turkiston”, “Sadoyi Turkiston” gazetalarda Turkistonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, milliy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlardagi ravnaqi uchun zarur bo'lgan

muammolami ko'tarib chiqdilar. A.Avloniy o'z asarlarida bola tarbiyasi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Tarbiya - pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir". "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim", "Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga, vujudi tarbiyat topsa bo'lur ul rahnamo sizga, "Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim, buzilsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.", "Kerak tarbiyat yoshlikdan kerak, ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak". Fitratning "Rahbari najot" asari to'la ravishda ta'lim –tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, [bu masalalar](#) hozirgi kunda ham katta ahamiyatga egadir. Fitrat qarashlarida ota – onaning o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiya qilmoqliklari uchun: jismoniy tarbiya - salomatlik; aqliy tarbiya - sog'lom fikrlilik; axloqiy tarbiya axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi. Fitrat "Har bir kishi shu uch quroldan birisiz maydonga kirsa, albatta, mag'lub bo'lishi tabiiydir", deb aytib, bu bilan uch tarbiyani doimo qo'shib olib borish kerakligini, agar bularning birontasi kam bo'lsa, yetuk kishini tarbiylab bo'lmasligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bundan tashqari bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo'lida bo'lishini ta'kidlab o'tadi. "Bolalarni barkamollikka yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasdan, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlarhar tomonlama barkamol inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusitaraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi", - deb uqtiradi. Fitrat bolalaming toza ozoda bo'lishlari, tabiat gozalliklaridan estetik zavq ola olishlariga chuqur ahamiyat beradi va deydi: "Havo inson uchun

ovqatdan ham muhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go'daklarni hamma vaqt sof havoga, bog' - chorbog'larga olib chiqish lozimdir” Fitrat bolalarning har tomonlama rivojlanishida, ularni jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini ham takidlaydi. Ota onalariga o'z bolalarining harakatli o'yinlar bilan muntazam mashg'ul bo'lishlarini maslahat beradi: Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun zarurdir, shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yinlar bilan band qilish foydalidir. Bolalarni o'yindan man etishning foydasi yoq'dir, ularni doimo bir joyda o'tirishlari, [harakat qilmasliklari](#) ularni tanalari zaif bo'lishlariga olib keladi. Ota-onalar doim o'z bolalarini o'yinga tashviq va targ'ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o'yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'irisida”gi Qonuni O'RQ 595-son 2019-yil 16-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim to'g'irisida”gi Qonuni. O'RQ-637. T.: 2020 yil, 23-sentabr.
3. Meliyev X.A Buranova Sh.A Norqo'ziyeva M. A “Oznakomleniye s prirodoy” Darslik. Toshkent 2022-yil.
4. Norbo'tayeva G. Maktabgacha ta'lim tizimining sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarilishi /Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor.
5. “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmasini qarang// O'yin orqali o'rganish//birinchi nashr//11-bet, Toshkent//2020.
6. Bolibekov A.A., Yo'ldosheva M.A. Xorijiy mamlakatlarda Maktabgacha ta'lim-tarbiya. O'quv uslubiy qo'llanma -Guliston 2019.
7. Babayeva D.R “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent -2018